



## XORIJIY MAMLAKATLAR AMALIYOTIDA INSPEKSION-KO‘RIK MAJMUALARI TASVIRLARINI TAHLIL QILISH TAJRIBASI

*Саламов Сарвар Ташпулатович. O‘zbekiston Respublikasi  
Bojxona instituti Bojxona nazorati kafedраси katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bojxona statistikasi sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zamonaviy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xususan, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar (Big Data) texnologiyalari asosida ishlovchi chatbot tizimlarini bojxona statistikasi jarayonlariga joriy etish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot doirasida Xitoyda bojxona organlari tomonidan statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va foydalanuvchilarga taqdim etishda qo‘llanilayotgan raqamli yechimlar tahlil qilingan. Shuningdek, General Administration of Customs of China tomonidan amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya siyosati, intellektual axborot platformalari va chatbot xizmatlarining tashqi savdo statistikasi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** bojxona statistikasi, chatbot texnologiyalari, sun‘iy intellekt, raqamli bojxona, Big Data, tashqi savdo statistikasi, raqamli transformatsiya.

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar natijasida mamlakat iqtisodiyoti, mudofaa qudrati rivojlanib, pirovard natijada aholi farovonligi va yurt tinchligi ta‘minlanmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz tomonidan barcha sohalarni raqamlashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 - oktyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni qabul qilinishi ham fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi.



Sohani raqamlashtirish yoʻnalishida amalga oshirilayotgan islohotlar bojxona organlari faoliyatida ham sezilarli oʻzgarishlarga sabab boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qoʻmitasi ham sohani raqamlashtirish yoʻnalishiga katta eʼtibor qaratmoqda.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2023-yil 1-yarim yillik yakunlari boʻyicha Bojxona qoʻmitasi sohani raqamlashtirish boʻyicha 43 ta davlat boshqaruv organlari orasida 94,38 % bilan faxrli birinchi oʻrinni egalladi<sup>3</sup>.

Taʼkidlash kerakki, bojxona ishini raqamlashtirish bojxona sohasini ochiqlik, shaffoflik hamda ishonchlilik tamoyillari asosida korrupsiyadan xoli tizimga aylantirishda muhim oʻrin tutadi.

2022-2023-yillar davomida bojxona sohasini raqamlashtirish maqsadida 12 ta axborot tizimi, 4 ta interaktiv xizmat va 5 ta mobil ilova amaliyotga kiritildi. Buning natijasida bojxona rasmiylashtiruv vaqti 2 barobarga qisqardi. Shuningdek, eksport tovarlarining 90 foizi va import tovarlarining 80 foizi soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirildi. Bojxona yuk deklaratsiyalarini inson omilisiz avtomatik rasmiylashtirish hajmi eksportda 86 foizni tashkil qildi.

Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi bojxona organlariga davlat nazoratining turlaridan biri boʻlgan bojxona nazoratini amalga oshirish vakolatlari berilgan.

Umuman olganda, davlatning iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlovchi funksiyasini amalga oshirishda bojxona nazoratining muhim ahamiyatini inkor etib boʻlmaydi: bu bojxona qoidalarining buzilishi, bojxona toʻlovlaridan boʻyin tovlash jinoyati va tashqi iqtisodiy tUSDagi huquqbuzarliklarni aniqlashning eng muhim vositasidir.

Bojxona nazorati bu murakkab tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat nazorati funksiyalaridan biridir.

Oʻzbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 21-moddasiga muvofiq, bojxona nazorati Oʻzbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini taʼminlash uchun bojxona organlari tomonidan



amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo‘llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir4.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi chegara bojxona postlarida samaralari bojxona nazoratini amalga oshirish uchun IKMlaridan keng foydalanilib kelinmoqda.

Hozirgi kundagi integratsiyalashuv jarayonlarida bojxona organlari muhim rol o‘ynaydi. Ya’ni, iqtisodiyot (byudjetning daromad qismini to‘ldirish, tashqi savdoda davlatni qo‘llab-quvvatlash), siyosat (proteksionizmni amalga oshirish) kabi faoliyat sohalarida davlat manfaatlarini himoya qilishda, shuningdek, huquqbuzarliklarni aniqlash orqali butun mamlakat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon bojxona amaliyoti tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bojxona organlarining TIF ishtirokchilariga xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartirish uchun bojxona nazoratining texnik vositalaridan (BNTV) foydalanish eng keng tarqalgan.

Bojxona nazoratining texnik vositalari tushunchasiga bir nechta ta’riflar keltirilgan.


Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining 2024-yil 27-maydagi 101xfu-sonli “Bojxona nazoratini tashkil etishda texnik vositalaridan samarali foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi buyrug‘ining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan “Bojxona nazoratining texnik vositalaridan foydalanish TARTIBI”dagi ta’rifga ko‘ra “texnik vositalar – tovarlar va transport vositalari hamda yo‘lovchilarning bojxona nazoratini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan maxsus vositalar” hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur Tartibda “Texnik vositalari bojxona nazorati vaqtini qisqartirish va bojxona qonunchiligi buzilish holatlarini aniqlash maqsadida bojxona organlari tomonidan tovarlar va transport vositalari hamda yo‘lovchilarning bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan maxsus texnik vositalar majmuini tashkil etadi” deb belgilangan.



Qirg‘iziston Respublikasi hukumatining 2020-yil 13-fevraldagi “Bojxona sohasidagi ba’zi masalalar haqida”gi 79-sonli qarorining 9-ilovasi 2-bandida keltirilgan ta’rifga ko‘ra, “bojxona nazoratining texnik vositalari - bojxona nazorati vaqtini qisqartirish va bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar (jinoyatlar) faktlarini aniqlash maqsadida bojxona organlari tomonidan tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati jarayonida foydalaniladigan maxsus texnik vositalar to‘plami” ekanligi bayon qilingan.

Bugungi kunga kelib, eng samarali bojxona nazoratining texnik vositalaridan biri bu transport vositalarini ochmasdan va ularda ortilgan yuklarni tushirmasdan, ularning rentgen tasvirlarini taxminan 5 daqiqada olishga imkon beradigan IKM hisoblanadi. Shu o‘rinda IKM tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak.



O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining 2024-yil 27-maydagi 101xfu-sonli “Bojxona nazoratini tashkil etishda texnik vositalaridan samarali foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi buyrug‘ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Bojxona nazoratini amalga oshirishda inspeksion-ko‘rik majmualaridan foydalanish TARTIBI”dagi ta’rifga ko‘ra “inspeksion-ko‘rik majmuasi – rentgen nurlarini qo‘llagan holda yuklar va transport vositalarini (avto va temir yo‘l tarkiblari) skaner qilish orqali ularning ichki qismi tasvirlarini olishga hamda tahlil qilishga yordam beruvchi bojxona nazoratining texnik vositasi” ekanligi bayon qilingan.

Statsionar IKM o‘zida maxsus qurilgan binoni mujassamlashtirgan bo‘lib, unda tekshiruv tunneli, rentgen uskunalari, shuningdek, xodimlarning ishlashi uchun barcha zarur binolar mavjud bo‘ladi. Tekshiruv tunneli bojxona nazorati obyektlarini skaner qilishda ishlatiladigan yuqori energiyali rentgen nurlarini tashqariga chiqmasligi uchun katta beton devorlar bilan o‘ralgan. Bugungi kunda



O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida 12 ta statsionar IKM mavjud bo‘lib, ularning asosiy qismi temir yo‘l chegara bojxona postlarida o‘rnatilgan.

Ko‘chma IKM, statsionar IKMdan farqli o‘laroq o‘zida ham majmua binosi ham rentgen uskunasini birlashtirgan. Ko‘chma IKMni demontaj qilish va qayta yig‘ishga ya’ni uni yangi ish joyiga ko‘chirish uchun bir necha soatdan bir necha kungacha vaqt sarflanadi. Bu vaqt bir qator muhim omillarga bog‘liq: bino tuzilishi va jihozlarining bloklanish darajasi; u ko‘chiriladigan masofa uzoqligi; murakkab rentgen uskunalari o‘rnatishga sarflanadigan vaqt; ob-havo sharoiti va boshqalar.

Ba’zi hollarda ko‘chma IKMlarda binolar mavjud bo‘lmaydi va uskunalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli maydonning o‘ziga o‘rnatiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida ko‘chma IKMlardan foydalanilmaydi.

Uskunalari to‘liq avtomobil shassisiga joylashtirilgan mobil IKM operativ vazifalarni hal qilish uchun maksimal moslashuvchanlik bilan ajralib turadi va bu uning boshqa turdagi majmualarga nisbatan shubhasiz ustunligi hisoblanadi.

Bundan tashqari, mobil IKMlar boshqa majmualarga nisbatan arzon narxga ega, shuningdek, qalinligi 300 mm. gacha bo‘lgan po‘lat to‘siqlar ortidagi obyektlarning yuqori sifatli rentgen tasvirlarini olish uchun yetarli radiatsiya energiyasiga ega.

Mobil IKMni yurish holatidan ishchi holatiga o‘tkazish vaqti atigi bir necha o‘n daqiqani tashkil qiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida mobil IKMlar 11 tani tashkil qilib, avto chegara bojxona postlarida foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda IKMlarni bojxona ishida qo‘llashga xalqaro darajada e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, Jahon bojxona tashkiloti Kengashining 2005-yil iyun oyida Bryusselda bo‘lib o‘tgan sessiyasida jahon bojxona tashkiloti a’zolari “Xavfsizlik va jahonda savdoni soddalashtirish bo‘yicha SAFE standartlari”ni qabul qildilar8.



Ushbu noyob xalqaro hujjat savdo zanjiri xavfsizligining zamonaviy standartini oʻrnatdi va bojxona xizmati hamda tadbirkorlik hamjamiyati oʻrtasidagi yaqin hamkorlikning muhimligini eʼtirof etgan holda, chegaralar boʻylab tashiladigan tovarlarni “manzilgacha” boshqarishga yangi yondashuvni qoʻllash boshlaganini eʼlon qildi.

Oʻshandan buyon xalqaro savdo zanjiridagi oʻzgarishlarga samarali javob berish uchun Asosiy standartlar muntazam ravishda yangilanib turibdi. Asosiy standartlarga vakolatli iqtisodiy operatorlar (VIO), muvofiqlashtirilgan chegara boshqaruvi, savdo faoliyatining uzluksizligi va davom etishi, III (uchinchi) ustun (“Bojxona - boshqa davlat va hukumatlararo organlar”) toʻgʻrisidagi qoidalar hamda avia yuklar uchun ular yuklangunga qadar taqdim etiladigan dastlabki maʼlumotlar toʻgʻrisidagi qoidalar muhim qoʻshimchalar boʻldi.

Global savdo zanjiri globallashtirish, innovatsiya va texnologik oʻzgarishlar taʼsiri ostida keskin oʻzgarishda davom etmoqda. 2021-yilda JBT aʼzolari va boshqa manfaatdor tomonlarga xavfsizlik va xalqaro savdoni soddalashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish va mustahkamlashda yanada yordam berish uchun SAFE Asosiy standartlari yana bir bor yangilandi.

Jumladan, ushbu hujjatning kirish qismida SAFE Asosiy standartlarining beshta asosiy elementi belgilangan boʻlib, shundan 3-elementda, qabul qiluvchi mamlakatning asoslangan iltimosiga binoan, xavflarni aniqlash metodologiyasiga asoslanib, joʻnatuvchi mamlakatning bojxona maʼmuriyati yuqori xavfga ega boʻlgan chiquvchi tovarlar va (yoki) transport vositalarini, katta hajmli rentgen apparatlari va radiatsiya detektorlari kabi nointruziv aniqlash uskunalari qoʻllagan holda tekshirishni talab qilishi koʻrsatib oʻtilgan.

Bundan tashqari, ushbu xalqaro hujjatning bir nechta standartlari butunlay katta hajmli tekshirish majmualari kabi nointruziv nazoratning yuqori texnologiyali vositalaridan foydalanishga bagʻishlangan.



Jumladan, 3-standart “Ko‘rik texnikalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish” deb nomlangan bo‘lib, unga ko‘ra nointruziv tekshirish va radiatsiyani aniqlash uskunalari xavf mezonlariga muvofiq tekshiruvlarni o‘tkazish uchun lozim bo‘lgan joylarda ishlatilishi kerak. Bunday uskunarlar qonuniy savdoning tezkor, to‘xtovsiz oqimini ta‘minlash uchun hamda yuqori xavfga ega bo‘lgan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini tekshirish uchun zarurdir.

Shuningdek, 2.3.1 - band Zamonaviy texnologiyalar deb nomlangan va unda “JBT o‘z a‘zolarini qo‘llab — quvvatlash uchun Texnologiya tarmog‘ini yaratdi va SAFE hujjatlar to‘plamiga kiritilgan skanerlash uskunalari (nointruziv uskunarlar) sotib olish va ishlatish bo‘yicha batafsil Qo‘llanmani chiqardi” deb belgilangan.

Bundan tashqari, 8-standartda “Samaradorlik ko‘rsatkichlari” belgilangan.

Unga ko‘ra bojxona ma‘muriyatlari samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan statistik hisobotlarni, xususan, nointruziv tekshirish texnologiyalari qo‘llangan holda ko‘rikdan o‘tkazilgan yuqori xavfli yuklar partiyalari soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yuritishi kerak.

“Xavfsizlik va jahonda savdoni soddalashtirish bo‘yicha SAFE standartlari” hujjatining 4-Ilovasida nointruziv tekshirish texnologiyalaridan foydalanishga ustuvor ahamiyat berilgan.

Jumladan, II bob A bandida bir nechta “Umumiy afzalliklar” ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra yuklarni harakatini tezlashtirish, tranzit vaqtini qisqartirish va saqlash xarajatlarini kamaytirish uchun, zarur hollarda nointruziv tekshirish texnologiyalaridan foydalanish ustuvor ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi faoliyatiga inspeksion- ko‘rik majmualarini joriy etish uchun yetarli huquqiy asoslar yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatida IKMlardan foydalanishning dastlabki qadamlari 2006-yilga borib taqaladi. Jumladan, Bojxona organlarining axborot-texnik siyosati konsepsiyasiga muvofiq, 2006-yil 27-iyuldagi



4/6-sonli Davlat bojxona qo‘mitasi Hay‘atining Qarori bilan tasdiqlangan bojxona postlari va komplekslarini zamonaviy texnik nazorat va aloqa vositalari bilan jihozlash ishlarini amalga oshirish belgilangan.

Davlat bojxona qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda DBQ) bojxona organlarini IKM bilan jihozlashning asoslanganligini ta‘minlash va mavjud ehtiyojlarni aniqlash maqsadida 2008-yilda Jahon bojxona tashkiloti eksperti Frenk Lekoindr va Yaponiya TIV xalqaro hamkorlik byurosining texnik hamkorlik boshqarmasi xodimi Kenji Xiraini DBQning tovarlar va transport vositalarini bojxona ko‘rigidan o‘tkazish sohasidagi faoliyati bilan tanishish uchun taklif qiladi. Xorijiy ekspertlar o‘z hisobotlarida DBQ uchun zarur bo‘lgan uskunalarning asosiy texnik xususiyatlari va miqdorini ko‘rsatib beradi hamda respublikaning chegara bojxona postlari IKM bilan jihozlash va ularni joylashtirish uchun barcha zarur sharoitlarga ega ekanligini ma‘lum qilishadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Max Weber. *Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology*. — Berkeley: University of California Press, 1978.
2. Elinor Ostrom. *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
3. Thomas H. Davenport, Jeanne G. Harris. *Competing on Analytics: The New Science of Winning*. — Boston: Harvard Business School Press, 2007.
4. Vladimir V. Makrusev. *Marketing таможенных услуг*. — Moskva: RIO Rossiyskoy tamojennoy akademii, 2005.
5. World Customs Organization. *WCO Data Model and Digital Customs Guidelines*. — Brussels, 2021.
6. World Customs Organization. *WCO Study Report on Disruptive Technologies*. — Brussels, 2019.



7. General Administration of Customs of China. China Customs Statistics Yearbook. — Beijing, 2023.
8. General Administration of Customs of China. Smart Customs, Smart Borders, Smart Connectivity Initiative. — Beijing, 2022.
9. United Nations Conference on Trade and Development. Digital Economy Report. — Geneva: UNCTAD, 2023.
10. Organisation for Economic Co-operation and Development. The Digital Transformation of Trade. — Paris: OECD Publishing, 2020.
11. World Bank. World Development Report: Data for Better Lives. — Washington DC, 2021.
12. International Monetary Fund. Measuring the Digital Economy. — Washington DC, 2018.
13. WeChat platformasidagi davlat elektron xizmatlari orqali tashqi savdo statistikasi ma'lumotlaridan foydalanish amaliyoti bo'yicha tahliliy materiallar.
14. Davenport T.H. Artificial Intelligence for the Real World // Harvard Business Review. — 2018.
15. Makrusev V.V. Razvitiye tamojennogo servisa v usloviyax sifrovoy ekonomiki // Tamojennaya politika Rossii na Dalnem Vostoke. — 2019.